

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2022

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

J.Obidov

Talabalarda texnologik determinizm konsepsiyasiga oid bilimlarini takomillashtirishning pedagogik mazmuni va amaliyotdagi holati 311

F.Madraximova

Ta'limi axborotlashtirish sharoitida talabalarda mediasavodxonlikni rivojlantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida 316

IQTISODIYOT

M.Юлдашева, А.Колканатов

O'ilaviy dam olish madaniyatini rivojlantirishda ijtimoiy va madaniy marketing 188

C.Исмоилова

Budjet mablag'laridan foydalanishning samaradorligini ifodalaydigan ko'rsatkichlar tizimi 193

TARIX

B.Matboboyev, A.Aloxunov

Farg'ona vodiysida ilk urbanizatsiya jarayonlari 198

S.To'raxo'jaev

Sovet hokimiyyati tomonidan Turkiston ASSR da amalga oshirilgan bolalar evakuatsiyasi va reevakuatsiyasi tarixidan 203

R.Ahmedov

Turkiston ASSRda savodsizlikni tugatish bo'yicha dastlabki chora-tadbirlarning yo'lga qo'yilishi (1918-1922-yillar) 208

Sh.Jumaev

Farg'ona viloyatidagi katolik jamoalarining faoliyati: tarix va bugungi kun 215

I.Xo'jaxonov

Amir Temur davri shaharsozligida turli o'zliklarning namoyon bo'lishi 219

A.Sarsenbaev, N.Turambetov

Yevropada islom huquqi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar tahlili (XVIII-XXI) 223

R.Akbarov

Ikkinchi jahon urushi yillarda o'zbek milliy matbuoti sahifalarida mahalliy resurslardan foydalanish masalasi 230

N.Turambetov

Yozef shaxt - islom huquqshunosligi bo'yicha taniqli yevropalik sharqshunos olim 237

X.Ergasheva

1917-1924 yillarda Farg'ona vodiysida neft sanoati tarixi 242

ADABIYOTSHUNOSLIK

X.Maxsudova, Sh.Shahobiddinova

Эргонимларнинг лексик-семантик хусусиятлари 248

A.Abduraxmonov

Zamonaviy o'zbek nasrida rangning g'oyaviy yo'nalishni tashkillashdagi ahamiyati 252

B.To'raeva

Xronotop poetikasining o'ziga xos xususiyatlari 257

H.Каримова

Abdulla Qodiriy asarlarda folklor xronotopi 264

P.Ro'ziboyeva, B.Karimov

Abdulhamid Cho'lpox hikoyalarida ayollar obrazi talqini, ayolar erki va ta'llimi masalasi 268

Sh.Axmedova

Omon matjon she'riyatining badiiy jihatlari 273

G'.Israilov

Sakkokiyl adabiy merosi o'rganilishi manbalari xususida 277

TARIX

UDK: 93/99.395.(911)

AMIR TEMUR DAVRI SHAHARSOZLIGIDA TURLI O'ZLIKLARNING NAMOYON BO'LISHI**ПРОЯВЛЕНИЕ РАЗНЫХ ИДЕНТИЧНОСТЕЙ В ГРАДОСТРОИТЕЛЬСТВЕ ПЕРИОДА АМИРА ТЕМУРА****THE MANIFESTATION OF DIFFERENT IDENTITIES IN URBAN PLANNING OF THE PERIOD OF AMIR TEMUR****Ismoiljon Mansurovich Xo'jaxonov1*****1Ismoiljon Mansurovich Xo'jaxonov******– O'zR FA Milliy arxeologiya markazi tarix fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim.******Annotatsiya***

Shaharsozlik madaniyati, shahar me'morchiligi, me'moriy inshootlarning joylashishi va nisbiy yaxlitligi kabilarda o'ziga xosliklar namoyon bo'ladi. Bu esa o'z navbatida shaharsozlikni o'zlikni anglash nuqtai nazaridan o'rganish zarurligini ko'rsatadi. Amir Temur shaharsozlikka katta e'tibor qaratadi. U shaharlarning iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ma'naviy jihatdan qulay bo'lishiga va o'zlik talablariga javob berishiga ahamiyat bergen. Maqolada ushbu masalalar tarixiy manbalar va arxeologik tadqiqotlar natijalari asosida tahlil etilgan.

Аннотация

Уникальность проявляется в градостроительной культуре, городской архитектуре, расположении архитектурных сооружений и относительной целостности. Это, в свою очередь, говорит о том, что городское планирование можно изучать с точки зрения самосознания. Амир Темур уделяет большое внимание градостроительству. Он подчеркнул, что города должны быть экономически, социально, культурно и духовно комфортными и отвечать требованиям идентичности. В статье анализируются эти вопросы на основе исторических источников и результатов археологических исследований.

Abstract

Uniqueness is manifested in the urban culture, urban architecture, the location of architectural structures and relative integrity. This, in turn, suggests that urban planning can be studied in terms of identity. Amir Temur pays great attention to urban planning. He emphasized that cities should be economically, socially, culturally and spiritually comfortable and meet the requirements of identity. The article analyzes these issues on the basis of historical sources and the results of archaeological research.

Kalit so'zlar: Amir Temur, shaharsozlik, o'zlik, Samarqand, Shahrисабз, me'moriy inshootlar, xonaqо.***Ключевые слова:*** Амир Темур, градостроительство, самосознание, Самарканد, Шахрисабз, архитектурные сооружения, ханака.***Key words:*** Amir Temur, urban planning, identity, Samarkand, Shakhrisabz, architectural structures, khanaka.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Amir Temur o'zbek davlatchiligi tarixida muhim o'rincutadi. Uning hukmronligi davrida markazlashgan kuchli davlat tashkil topishi bilan birga, mamlakatda savdo sotiq, hunarmandchilik, ilm-fan, xalq amaliy san'ati, madaniyat, ayniqsa, o'rta asr sharq me'morchilik va shaharsozlik madaniyati o'zining eng yuqori cho'qqisiga ko'tarilgan edi. Amir Temur davrida shaharsozlikning yangi bosqichga ko'tarilgani, shaharlar va me'moriy inshootlarga nisbatan mamlakat kuchqudratining ramzi, davlat hokimiyyati belgisi sifatida qaralganligi bois uning davridagi shaharsozlik madaniyatini o'zlikni anglash nuqtayi nazaridan o'rganish dolzarb hisoblanadi.

Shaharsozlik va me'morchilikda turli o'zliklarning aks etishi bugungi kunda ilmiy muomaladagi mavzulardan biridir. Alohida binolar yoki binolarning mavjud xilma xilligi, ularning nisbiy yaxlitligi va boshqa omillar ma'lum bir shahar yoki aholi punktining o'zligi mavzusi bo'lishi mumkin. [4.]

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / METHODS)

Amir Temur davri shaharsozlik madaniyati arxeologiya [6,8,1.], san'atshunoslik [10,12.] va arxitektura [2,7.] sohasi tadqiqotchilari tomonidan o'rganib kelinadi. Ushbu tadqiqotlarda asosiy e'tibor Amir Temur davri shaharlarning tarixiy topografiyasi, me'moriy inshootlar va ularning badiiyestetik tuzilishi, me'morchilik usullari kabi masalalar tadqiq va tahlil etilgan. Bu davr tarixiy yodgorliklaridagi turli ramzlar va timsollar orqali o'zliklarning u yoki bu jihatlari rus tilida chop etilgan "IX-XV asrlarda Markaziy Osiyo va Ozarbayjon badiiy madaniyati" nomli to'plamda ma'lum darajada yoritilgan. [10: 204215.]

TARIX

Shunga qaramay, Amir Temur davri shaharsozligida turli o'zliklarning namoyon bo'lishi mavzusi bugungi kunga qadar maxsus o'rganilmagan.

Maqlolaning manbaviy asosini o'rganilayotgan davrga oid yozma manbalar va Samarqand hamda Shahrисabz shaharlаридаги Temur davriga oid me'moriy yodgorliklarda olib borilgan arxeologik izlanishlar natijalari tashkil etadi. 1404-yilda Samarqandda bo'lgan Kastiliya qirolligi elchisi Rui Gonzales de Klavixoning xotiralarida Temur qudirgan inshootlar, shaharlар va ularning atrofida barpo etilgan bog'lar haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan.

Maqlolada tarixiy manbalardagi Temur davri shaharsozlik madaniyatiga oid ma'lumotlarni tavsiflash, qiyoslash va tahlil qilish uslubidan foydalanildi.

NATIJALAR (РЕЗУЛТАТЫ / RESULTS) Mo'g'ullar istilosini paytida Movarounnahr hududidagi shaharlarning aksariyati vayron etilgan edi. Amir Temur davrida savdo-sotiq va hunarmandchilikning rivojlanishi natijasida shaharlarning ahamiyati yanada orta boshladi, ular davlat hokimiyatining va madaniy hayotning markaziga aylandi. Uning hukmronligi yillarda mo'g'ullar davrida vayron etilgan eski shaharlarning ba'zilari avvalgi o'rniда, ba'zilari yangi o'rinda qayta tiklandi, shuningdek, yangi shaharlар ham barpo etildi. Masalan, Samarqand mo'g'ullargacha bo'lgan davrdagi shaharning tashqi qismida shahri burunda tiklangan, uni hududiga Afrosiyob kirmagan.

Temur davrida aksariyat shaharlarning atrofi mustahkam devor bilan o'ralgan. Shaharlarning mudofaa devorlari bilan o'ralgan ichki qismi hisor deb atalgan. Hisorda saroy, qal'a, amaldorlarning qasr va qo'rg'onlari, masjid va madrasalar, honaqohlar, bozorlar, turli ijtimoiy binolar va aholi turar joy binolari joylashgan. Temuriy shaharlар me'morchiligi, G.A. Pugachenkova yozganidek, – ijtimoiy turmush oynasi bo'lib: qal'alar – bu davlatning qudratini aks ettiradi, saroylar – xukmron sinflarning yorqinligi, diniy binolari – musulmon mafkurasi tantanasi, bozorlar – hunarmandchilik va savdoning rolini yuqoriligi, zinch turar joy binolari – bu murakkab shahar organizmi hayotiyligining joni va qonidir. [6: 10.]

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION) Amir Temur shaharlarga nafaqat savdo sotiq va hunarmandchilik markazi sifatida, shuningdek, o'ziga xos siyosiy, starategik nuqtai nazardan qaragan. Uning davrida shaharlар ma'lum reja, bosh plan asosida rivojlantirila boshlangan. Sohibqironning o'zi shaxsan chodir qarorgohini afzal ko'rgan bo'lsada, asosiy davlat saroy binolari uning qo'l ostidagi shaharlarda bonyod etilgan. Uning "Bizni qudratimizga shubha qilsangiz, biz qudirgan binolarga boqing" degan so'zlarga asoslangan ambitsiysi hashamatli shahar me'morchiligini vujudga kelishiga va rivojlanishiga zamin yaratdi. Amir Temurning ayniqsa mamlakat poytaxti bo'lmish Samarqand va ota yurti hisoblanmish Shahrисabz (Kesh) shaharlарida amalga oshirgan bonyodkorlik ishlari alohida e'tiborga molik.

Samarqand Temur davlatining poytaxti sifatida kattaligi jihatidan dunyodagi eng yirik shaharlар bilan tenglasha olishi, hatto ulardan ustun turishi lozim edi. Shunday bo'lgan ham. Misol uchun, ispan elchisi de Klavixoning tan olib yozishicha, Samarqand Ishbiliya (Sevilya)dan kengroq bo'lgan. [9: 135.] Shuningdek, Amir Temur Samarqand shahri atrofida Sharqning mashhur Misr, Damashq, Bag'dod, Sheruz, Sultoniya kabi shaharlарiga monand katta qishloqlarni barpo etib, Samarqand o'zining kattaligi, go'zalligi hamda tevarak atrofining obodligi jihatidan dunyoning eng yirik shaharlарidan ham ustun turishini uqtirmoqchi bo'ladi. Qolaversa, Sohibqiron o'z yurishlari davomida mag'lub etilgan yurtlardan hunarmandlarni olib kelib, Samarqand atrofidagi qishloq va bog'larga joylashtirgan edi. Ispan elchisining yozishicha, shaharda har qanday hunarmandni va hunarmandchilik mahsulotlarini topish mumkin bo'lgan. Damashqdan qurolsoz ustalar, Turkiyadan arbalet, tosh ustalar, zargarlar va boshqalar olib kelingan. Ular orasida turli xalqlar turklar, arablar, mavrlar va boshqalar, arman va yunon katoliklari, nestorianlar va yakobitlar hamda o'ziga xos marosim tushunchasiga ega nasroniyalar bor edi. [9: 139.]

Temur davrida Samarqand jahon savdo sotiq markazlaridan biriga aylangan edi. Shaharga Xitoydan, Hindistondan, Dashti Qipchoqdan va Samarqandning o'zidan ham ko'plab hunarmandchilik mahsulotlari olib kelib sotilgan. Shaharda turli mahsulotlar sotiladigan maxsus katta bozor bo'lmaganligi, balki har qaysi mahsulot alohida bozorda sotilganligi bois Amir Temur shaharni kesib o'tadigan katta ko'cha o'tkazishni va ko'chaning ikki chetida do'konlar qurilib, savdogarlar o'sha yerda savdo qilishlariga buyruq beradi. Shaharning ikki chekkasini kesib o'tuvchi katta ko'cha, baland imoratlar, markaziy ko'chalarda favoralar, dam olish joylari, savdo rastalarining joylashganligi Samarqand shaharsozligining o'ziga xos usullaridan biri hisoblanadi. Arxeologik tadqiqotlar shahar markazidan o'tuvchi katta ko'cha Shahrисabzda ham mavjud bo'lganligini ko'rsatadi. [8: 104.]

Amir Temur Samarqand va Shahrисabz shaharlарida baland, mahobatli binolarni barpo ettirgan. Temur odatda har bir quvonchli voqeа yoki g'alabasini biror bir me'moriy obida barpo etish bilan nishonlashga harakat qilgan. Amir Temur davlat ishlарini olib borish uchun Samarqand arkida Ko'ksaroy nomi bilan mashhur bo'lgan to'rt qavatlар ulug' bir ko'shk qudirgan bo'lsa, Hindistonda qozonilgan

TARIX

g' alabadan so'ng u Samarqand shahrining Ohanin darvozasiga yaqin qal'aning ichida toshdan jome' masjadi qurdigan. Ushbu masjid asosan hindistonlik toshtarosh ustalar tomonidan qurilgan. Masjidning gumbaz qismi juda mahobatli bo'lib, Sharafiddin Ali Yazdiyi uni "agar osmon gumbazi bo'Imaganda masjid gumbazi olamda yagona bo'lar edi", deya mubolog'a etadi. Masjidning peshtoqi tepasiga muqaddas Qur'oni Karim oyati bitilgan. Bobur ushbu yozuvlarni shaharning uzoq yeridan ham o'qish mumkin bo'lganligini yozadi. [3: 56.] Bunday muqaddas yozuvlar boshqa me'moriy inshootlarda ham bitilgan. Umuman olganda epigrafiya Temur davri me'moriy bezaklarining semantik dominantiga aylangan: Qur'oni karim oyatlari, hadisi sharif, Alloh va Muhammad (s.a.v.) ismlari Amir Temur qurdirgan binolarning asosiy qismini qamrab olgan bo'lib, bular ayni paytda u qurdirgan binolarni va uning sultanatini himoya qilishini anglatar edi.

Temur hukmronligining ilk davrida Kesh shahriga katta ahamiyat berib, uni Movarounnahrning ma'naviy markaziga aylantirgan. Shu bois bu shahar «Qubbatal ilm val adab» unvoniga ega bo'lgan. Temur o'zining poytaxtini ham shu yerda qurishni niyat qilib, go'zal Oqsaroyni bino ettirgan edi. Bu saroy eronlik va xorazmlik ustalar tomonidan o'n ikki yildan ortiqroq vaqtida bino qilingan bo'lib, Temur qurdirgan imoratlarning eng kattasi hisoblangan. Oqsaroyning eng ko'rksam va oliy maqomini uning peshtoqi tashkil etadi. Mazkur bino peshtoqida sher va ortida quyosh tasviri tushirilgan bo'lib, bu tasvirni Klavixo Samarqand hukmdorlarining ramzi hisoblangan, ushbu bino qurilishi Temurdan oldinroq boshlangan bo'lsa kerak, deb yozadi. Chunki Temurning ramzi uchta aylanadan iborat bo'lgan. Xerman Vamberi esa "bu saroy Eron me'morlarining xolis ishidir, ular bunda o'zlarining milliy uslub me'morchiligidagi, aniqrog'i, g'arbiy islam uslubiga sodiq qolib, imorat peshtoqiga doira va quyosh alomatini tasvirlaganlar. Shuning bilan Turon fotihining iqomatgohi Eron shohlarining alomat belgilari bilan bezatilgan edi" deb yozadi. [11: 37.]

Temur o'z davlatining kuchqudrat ramzi sifatida barpo ettirgan mahobatli binolar va keng maydon ko'rinishidagi me'morchilik usuli bir jihatdan turkiy o'zlikning ham ifodasi edi, deyish mumkin. Chunki, mahobatli inshootlarni qurish, garchi ularning ko'pchiligidini diniy binolar tashkil etgan bo'lsada, islam dinida targ'ib qilinmaydi. Aksincha, yirik, mahobatli narsalardan ta'sirlanish turkiy qavmlarga xos xususiyatdir. Masalan, Xerman Vamberi Temur saroyidagi bazmu jamshidlarga baho berar ekan "turklarning hissiyotiga faqat katta narsalar ta'sir etishini" ta'kidlaydi. [11: 36.] Shaharsozlikdagi o'ta hashamadorlik va keng maydon usulini ham turklarga xos ana shunday shijoat bilan bog'lash mumkin.

Temur davriga oid turk qabilalariga xos yana bir shaharsozlik usuli bu shaharlar atrofida bog'-rog'larning tashkil etilishi hisoblanadi. Shuning uchun ham shaharlarga joy tanlashda obhavoning sofligi va quruqligidan tashqari atrofida bog'lar barpo etish imkoniyatlari e'tiborga olingan. Masalan, Samarqand shahri atrofida o'n ikkita bog' barpo etilgan bo'lib, bu bog'larni qurishda joy, relief va shamollar yo'nalishiga katta e'tibor qaratilgan. [1: 111.] Shahrisabzni atrofida ham juda ko'p xilma xil bog'lar bo'lgan. Umuman, Amir Temur davrida shaharlar atrofi bog' va ekin maydonlaridan iborat bo'lishi shaharsozlikning o'ziga xos qonuniyatlaridan biriga aylangan. Bu bejiz emas, albatta. Chunki, ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi hayot tarziga odatlangan turk qabilalari uchun hayotining asosiy qismini g'isht yoki toshdan qurilgan saroylarda emas, balki ochiq dala va maydonlardagi bog'larda o'tkazish ko'proq zavqli bo'lgan. Amir Temur va uni beklari o'zlarining oilaviy hayotini shaharlar atrofidagi bog'larda, boshqacha aytganda, dala hovlilarda o'tkazishga harakat qilgan. Bu yerda qishin-yozin chodirlar tikuqli turgan. Ispan elchisi Rui Gonsales de Klavixo Temurning otasi Keshning nufuzli beklaridan bo'lib, shaharga yaqin qishloqda yashaganligi haqida yozar ekan, "...bu qabilaning aslzodalari shahardan ko'ra ekin maydonlariga ega qishloqlarda yashashni afzal ko'rishgan" deydi. [9: 104.]

Shu bois, Samarqand shahri qal'asining tashqarisida shahardagidan ko'ra ko'proq (zichroq) odam yashagan. Shahar tashqarisidagi bog'larda ko'plab kattakatta imoratlar mavjud bo'lib, Temurning o'zining ham asosiy saroylari va qasrlari bo'lgan. Bu bog'larda saroy ayonlarining ham uylari, qo'rg'onlari bor edi. Bu davrda aslzodalarning uylari odatda ham shahar ichida (xisorda) ham shahar tashqarisida bo'lgan. Shahar ichidagi binolar (bunga Ko'ksaroy, Oqsaroy, Bog'i shahr kabilalar mansub) davlat ishlari, turli tantanalarni o'tkazish kabilarga mo'ljallangan. Shahar tashqarisidagi binolar esa odatda oilaviy hayot uchun, oilaviy bazmu jamshidlar uchun mo'ljallangan.

Amir Temur davri shaharsozligining yana bir o'ziga xos jihatni bu davrda masjid va madrasalar bilan birga xonaqo qurish an'anasi edi. Mo'g'ullar davrida islam dini davlatning rasmiy dini maqomini yo'qotgan edi. Shunday sharoitda tasavvuf shayxlari islam dinini xalq orasida saqlab qolish va ayniqsa chorvador aholi orasida keng yoyilishida katta xizmat qiladi. Amir Temurning ham o'z shayxlari bo'lib, shariat va davlat ishlariда ularning maslahatlarini olib turgan. Uning o'zi saltanatdan erishgan jamiki narsam va mustahkam makonlarni fath qilishim bular hammasi shayx Shamsuddin alFohuriyning

TARIX

duosi, Shayx Zaynuddin alXavofiyning himmati tufayli va barcha topgan barakatlarim esa faqat Sayyid Baraka yordamida bo'lgan" der edi. [5: 73.]

Islom dinini allaqachon qabul qilgan, so'fiy shayxlar ko'rsatmalariga amal qilgan harbiy ko'chmanchi elitaning vakili bo'lgan Sohibqiron mo'g'ullar qo'li ostida pasaygan islom dinining rasmiy maqomini tikladi. Ammo diniy hayot uzoq vaqt davomida ko'p jihatdan masjidlar atrofida emas, balki so'fiylar xonaqohi va maqbaralar atrofida aylandi. Shu munosabat bilan Amir Temur davrida so'fiy tafakkur amaliyoti an'anaviy islom ta'limga qo'shimcha bo'lib qolganligi sababli xonaqohlar madrasalar bilan birgalikda qurila boshlandi. Temur davri shaharsozligida xonaqo masjid bilan birga memorial majmualarning majburiy elementiga aylangan edi (Keshdag'i Dorus Saodat va Dorus Tilovat, Samarqanddagi Abdi Darun maqbarasi, Muhammad Sulton madrasasi va xonaqohi).

Amir Temur sultanatining birinchi o'n yilliklarida davlat xazinasi mablag'lari hisobidan qurilgan asosiy va ko'zga ko'rningan binolar masjidlar emas, balki hurmatli shayxlarning maqbaralari bo'lgan: Samarqandda Nuriddin Basir va Burxoniddin Sagarji, Shahrisabzda Sohibqironning ma'naviy ustozи Shamsiddin Kulol, Toshkent yaqinida Zayniddin bobo va Zangi ota. Bunday maqbaralar shayxlarning maqom dafnlarini markazlashtiruvchi muhim gumbazli inshootlar edi. Amir Temur muqaddas maqbaralarni buniyod etish bilan nafaqat hayriya ishlarini amalga oshirgan, balki o'zi va sulolasini ana shu aziz insonlar homiyligida ekanligini e'lon qilgan edi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION) Amir Temur davrida shaharsozlik madaniyatida keng ko'cha va maydonlarga alohida o'rin berilishi, atrofi bog'u-rog'lardan iborat bo'lgan shaharsozlikning rivojlanishi, bosh reja asosida shakllangan shaharlarda mahobatli saroylarning qurilishi hamda diniy inshootlar majmuida xonaqo va maqbaralarga alohida e'tibor qaratilishi sohibqiron davriga xos turli o'zliklar bilan ham bog'liq bo'lgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Anarbayev A., Qarayeva Z. Sohibqiron Amir Temur davrida shaharsozlik madaniyati // O'zbekiston arxeologiyasi. 2011. № 1 (2). Б. 108113. (*Urban planning culture in the time of Sahibkiran Amir Temur // Archeology of Uzbekistan.*).
2. Ahmedov M.Q. O'rta Osiyo me'morchiligi tarixi. Т.: O'zbekiston, 1995. - бет 142. (*History of Central Asian Architecture*).
3. Boburnoma / Zahiridin Muhammad Bobur; Tahrir hay'ati A.Qayumov, X.Sultanov, B. Alimov va boshq.; Xalqaro Bobur fondi. Т: O'qituvchi, 2008. bet 288. (*Baburname*).
4. Ecayulov Г.В. (2018). *Об идентичности в архитектуре и градостроительстве.* <https://cyberleninka.ru/article/n/ob-identichnosti-v-arkhitekture-i-gradostroitelstve/viewer> (On Identity in Architecture and urban planning).
5. Ibn Arabshoh. Temur tarixida taqdir ajoyibotlari. 1kitob. Т.: Mehnat, 1992. bet 326. (*The wonders of destiny in the history of Timur*).
6. Пугаченкова Г.А. Зодчество Центральной Азии. XV век. Ведущие тенденции и черты. Т.: Издательство литературы и искусства, 1976. С. 116. (*Architecture of Central Asia. XV century. Leading trends and features*).
7. Po'latov X. Shaharsozlik tarixi. O'quv qo'llanma. Т.: Fan va texnologiya, 2008. bet 296. (*History of urban planning. Study guide*).
8. Raimqulov A., Siddiqova G. KeshShahrisabz hududida shaharsozlik madaniyatining shakllanishi xususida // O'zbekiston arxeologiyasi. 2011. № 1 (2). Б. 99-107. (*On the formation of urban culture in the territory of Kesh Shahrisabz // Archeology of Uzbekistan*).
9. Руи Гонзалес де Клавихо. Дневник путешествия в Самарканду ко двору Тимура (14031406). Пер. со староиспанского, предисл. и comment. И.С. Мирковой. М.: Наука, 1990. С. 211. (*Diary of a journey to Samarkand to the court of Timur (14031406)*).
10. Художественная культура Центральная Азия и Азарбайджана IX-XV в. Том. № 4. Архитектура. СамаркандТашкент: МИЦАИ, 2013. С. 280. (*Artistic culture of Central Asia and Azerbaijan in the 9th-15th centuries. Tom. No. 4. Architecture*).
11. Herman Vamberi. Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi. Т.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1990. - bet 64. (*History of Bukhara or Movarounnahr*).
12. Эльмира Гюль. Архитектурный декор эпохи темуридов: символы и значения. Т.: 2014. С. 180. (*Architectural decor of the Timurid era: symbols and meanings*).